


Benazir ma'naviy meros

Alisher Navoiy asarlarini umumiy qilib «Hikmatlar majmuasi» yoki «Xalq donishmandligi qomusi» deb ham atash mumkin.

Zero, hikmatli so'zlar - maqollar, matallar, obrazli iboralar, ibratli hikoyatlar Navoiyning deyarli barcha she'riy va nasriy asarlarida uchraydi. Chunonchi xalq hayotining barcha jihatlarini yaxshi bilgan va katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan mutafakkir o'z asarlari vositasida yuksak ma'naviyatli insonni tarbiyalashga qaratilgan o'ziga xos insoniylik kodeksini yaratishga muvaffaq bo'lди. Xalq donishmandligi namunalaridan ilhom va ozuqa olgan Hazrat Navoiy o'zi ham donishmandlikning buyuk namunalarini yaratgan.

O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), yosh sharqshunos-manbashunos Komiljon Rahimov tomonidan tayyorlangan va «Fan» nashriyotida chop etilgan «Alisher Navoiy hikmatlari» kitobini benazir ma'naviy meros deyish mumkin.



Ayn Shams universiteti (Misr Arab Respublikasi) filologiya fakulteti Turkiy tillar kafedrası professori Magda Maxluf va Nyu-Dehlidagi Fors tadqiqotlari markazi rahbari, professor Ehsonulloh Shukrullohiy hamda O'zR

FA vitse-prezidenti, t.f.d., professor Bahrom Abduhalimov ilmiy muharrirliklari ostida tayyorlangan ushbu kitobda Alisher Navoiyning she'riy va nasriy hikmatlari kirill yozuvi bilan birgalikda eski o'zbek yozuvida (turkiy) hamda fors va arab tillariga qilingan tarjimada o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan.